



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



YDK: 633.51;631.523

YANGI NAV TIZIMLARINING ASOSIY XOʻJALIK QIMMATLI BELGILARINING QURGʻOQCHILIKKA CHIDAMLILIGI

Allamuratov Erbol Tursinbay uli¹

tayanch doktorant

Tel: +998934885323

Nagimetov Oraqbay², q.x.f.n., k.i.x.

Qoraqalpogʻiston dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Tel: +998990465811

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19239975>

Annotatsiya. Gʻoʻzaning yangi navlarini yaratish uchun seleksionerlar asosiy xoʻjalik belgilarining genetikasi toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlishlari kerak. Maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, miqdoriy belgilar turli genlar bilan bogʻliq boʻlib, ularning taʼsiri atrof-muhit sharoitlari taʼsirida oʻzgarishi mumkin. Mazkur ishda bizning sharoitimizga yaxshi moslashgan turli yoshdagi gibridd populyatsiyalarni yaratish vazifasi qoʻyilgan. Eng yaxshi seleksiya materiallari keyinchalik tegishli koʻchatzorlarda sinab koʻrish va bizning ekstremal sharoitlarimizga chidamli yangi nav raqamlarini yaratish uchun seleksionerlarga beriladi.

Kalit soʻzlar. Nav, tizma, duragay, chigit, qurgʻoqchilik, variatsiya, tezpisharlik, tola chiqimi, tola uzunligi, namuna.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qoraqalpogʻiston Respublikasida qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishni taʼminlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida qaror qabul qildi. Bu, birinchi navbatda, erta pishadigan, qurgʻoqchilikka va tuzga chidamli, ekologik va iqtisodiy jihatdan foydali ekinlarni yaratish zarurligini taʼkidlaydi.

Tadqiqot oʻrta shoʻrlangan va sunʼiy qurgʻoqchil fonlarda tadqiqot ishlarining metodologiyasi va sxemasiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpogʻiston Respublikasining shimoliy sharoitida tuproq namligi tanqisligiga qarab nisbiy oʻzgaruvchanlik darajasiga ega boʻlgan gʻoʻza tizmalarining reaksiya tezligini oʻrganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: - duragaylarning namlik yetishmasligiga qarab genetik parametrlarining oʻzgaruvchanlik darajasiga koʻra manba materialini baholash:

- asosiy xoʻjalik qimmatli belgilariga koʻra F₄ va F₅ tizmalarining transgressiv tarqalish tabiatini aniqlash, xususiyatlarining oʻzgarish diapazonini taxlil qilish.

Yergabulov J. O. Nagimetov, J. Abdurasuliyeva nav va liniyalarning qurgʻoqchilikka nisbatan turlicha genotipik munosabatda boʻlishini va qurgʻoqchil agrofondada miqdoriy qimmatli belgilarning oʻzgaruvchanligi nav namunasining genotipik salohiyatiga va uning suv stressiga boʻlgan munosabatiga bogʻliqligini taʼkidlaydilar [1].

Qishloq xoʻjaligi oʻsimliklarining qurgʻoqchilikka chidamliligi murakkab fiziologik-biokimyoviy xususiyat boʻlib, u yoki bu turdagi oʻsimlikning genotipiga bogʻliq. A. Dadabayev va N.G. Simongulyan (1969) maʼlumotlariga koʻra, G. Arboreum va G. Herbaceum turidagi gʻoʻza navlari qurgʻoqchilikka yuqori chidamlilikka ega [2].

Tkachuk Ye.S. (1986) oʻsimliklarning suv isteʼmoli koeffitsiyenti qiymatini oʻgʻitlash yordamida boshqarish mumkinligini yozadi, bu esa koʻp jihatdan oʻsimliklarning suv rejimiga javob reaksiyasi xususiyatini belgilaydi [3].



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Bugungi kunga kelib, navlarning ekstremal sharoitlarga yoki oʻziga xos cheklovchi ekologik omillarga (namlik yetishmasligi va tuproq shoʻrlanishi) moslashish xususiyatlari kam oʻrganilgan.

Oʻsimliklar va organizmlarning qurgʻoqchilikka chidamliligi mohiyatini tushunish uchun qurgʻoqchilikka qarshi kurash usullari va usullarini ishlab chiqish kerak. Bu muammo Qoraqalpogʻiston Respublikasi qishloq xoʻjaligi uchun oʻta dolzarb, murakkab va muhim ahamiyatga ega.

Institut tajriba xoʻjaligida qurgʻoqchilikning gʻoʻza duragaylarida qimmatli xoʻjalik belgilarining shakllanishiga taʼsirini oʻrganish boʻyicha tajribalar sunʼiy qurgʻoqchil agrofonda oʻtkazildi. Paxta gullash davrida 0-1-0 sugʻorish sxemasi boʻyicha tajriba maydonida bir marotaba sugʻorish amalga oshirildi.

Natiijalar. Toʻrtinchi va beshinchi avlodlarda oʻrganilgan duragaylarida vegetatsiya davrining davomiyligi andoza navga qaraganda oʻrtacha 2-9 kunga qisqaroq ekanligi kuzatildi. F4 (Mehr xGazina), (Chimboy -3010 X Gazina), (Mehr X Mehnat), (Mehnat x Chimboy-3010 va F5 (Namangan-77xZeta-2), (C-4727 x Bolqon), (Namangan-77 x Andijon-21) duragaylari oʻrganilgan boshqa duragaylarga qaraganda suv omiliga nisbatan sezuvchanligi past boʻlganligi aniqlandi.

Qurgʻoqchil agrofonda turli yoshdagi oʻrganilgan duragaylarda suv rejimining tola hosildorligini shakllantirishga taʼsiri har xil va oʻsimliklarning genotipik reaksiyasiga bogʻliqligini koʻrish mumkin. Olingan maʼlumotlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, tolaning uzunligiga tuproqdagi namlik yetishmasligi juda kuchli taʼsir qiladi. Bunday xolat F4 (Mehr x Mehnat), (Chimboy-3010 x Mehr), (Mehnat x Chimboy-3010), (Mehnat x L-152) va F5 (C-4727 x Balkan), (Chimboy-3104 x Andijan-21), (Namangan-77 x Andijan-21) tizmalarida kuzatildi.

Suv stressi F4–F5 gʻoʻza tizmalarining tola uzunligini shakllantirishga kuchli taʼsir qiladi. F4 (Gazina x Mehnat), (L-152 xMehr), (Mehnat x Chimboy-3010), (L-152 X Mehr) va (Gazina x L-152) va F5 (Chimboy-4104 h Yulduz), (Chimboy-3104 x Andijan-21) va (C-4727x Balkan) tizmalar oʻrtasida tola uzunligining suv taʼsiriga nisbatan eng solishtirma oʻzgaruvchanligi koʻrsatilgan.

Oddiy va sunʼiy qurgʻoqchil fonida «yarim boʻlish» usuli bilan oʻrganilgan oilalar, asosiy xoʻjalik qimmatli xususiyatlarning oʻzgarishi oraligʻi va oʻzgaruvchanlik koeffitsiyentida teng boʻlmagan oʻzgaruvchanlikni koʻrsatdi.

Qurgʻoqchilik fonida F5 (C-4727 x Balkan), (Namangan-77 x Andijan-21), (Yulduz x Andijan-21) va (C-4727 x Balkan) tizmalari qurgʻoqchilikka yaxshi moslashish qobiliyatiga ega boʻlgan miqdoriy tasniflari boʻyicha qiyosiy farqga ega boʻlgan qurgʻoqchilikka chidamli navlarni yaratish uchun juda qimmatlidir. Foydali belgilar majmuasi boʻlgan tizmalarni seleksiya jarayonida foydalanish oʻz natijasini beradi.

Qurgʻoqchil agrofonning gʻoʻza tizmalarining asosiy belgi xususiyatlarini shakllantirishga taʼsirini oʻrganib, shuni taʼkidlaymizki, turli yoshdagi gibril kombinatsiyalar qurgʻoqchilikka turli xil genotipik reaksiyalarga ega, ularning genotipik potentsialiga va uning suv stressining taʼsiriga bogʻliq ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yergabulov J., Abdurasuliyeva J. "Suv tanqisligiga chidamli duragaylar olish. Nukus 2002.
2. Simongulyan N.G. Problema skorospelosti v seleksii xlopchatnika. T.Fan, 1971 s. 221.
3. Tkachuk Ye.S. "Fiziologiya vodopotrebleniya pri optimizatsii mineralnogo